

Ona yurti - oltin beshig

TONG yulduzi

№40 (66425)
2003 yil
13 oktabr
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqarib boshlagan

E'TIBORIMIZ ISBOTI

Muxbir safardan qaytdi

Gullar shahri Andijonning ta'rifini ko'p eshitgandim. So'nggi yillardagi o'zgarishlar, rivojlanishlarni ko'rish maqsadida Bobur yurtiga yo'l oldim. Qamchiq dovonining kengligi tekisligini qarang. Tog'dan viloyatga qarab tushib borarkanman, yo'l chekkalarida chaman-chaman ochilgan gullar ifori dimog'imga urdi. Tabiiy muattar bo'ydan to'yib-to'yib nafas olgim keldi. Shu yerdan Andijon nafasini tuydim. Zamonaviy, chiroyli qad ko'targan binolar «anjancha» chapani ko'rinishga ega.

Bolalar bog'i yaqinida joylashgan Viloyat Xalq Ta'limi boshqarmasiga kirib borar ekanman, barcha: «Xush ko'rdik mehmon, qani, to'rga», - deya samimiy iltifot ko'rsatishardi...

Biz Izboskan tumani Xalq Ta'limi bo'limiga qarashli 25-bog'chaga yo'l oldik. Bolalar bog'chasi zamonaviy, 140 o'rinni bo'sh bo'lgan, to'rtko'l qishlog'ida joylashgan bo'lib, 8 ta guruh va 4 ta ingliz tiliga ixtisoslashgan sinf faoliyat ko'rsatib ekan. Majmuaga tajribali pedagog Maryam xoji aya Batalova rahbarlik qilarkanlar. Ular bizni majmuaga bilan tanishtira ketdilar:

-Har bir guruh va sinfxonalarimiz o'ziga xos did va mahorat bilan bezatilgan. Bolalarni

esa yoshini, intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda, milliy urf-odatlariga tayangan tarzda mustaqil fikrlashga undovchi o'yinlar bilan tarbiyalaymiz. 1998-99 o'quv yilida Davlat talablari asosida «Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash» tayanch



Andijon viloyat bolalar bog'chasidan lavha. Surat muallifi Odiljon HALILOV.

dasturini sinovdan o'tkazish uchun viloyat tajriba sinov maydoni sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Sinov jarayonida tuman viloyat hududiy hamda Respublika seminarlari tashkil etildi. Sinov nafaqat ta'lim muassasalarida, balki oilada tarbiyalanayotgan bolalar bilan ham olib borildi. Bizda tajribali, fidoyi tarbiyachilar ishlaydi. Ular bolalarni kasb-hunarga, bozor munosabatlarga o'rgatuvchi to'garaklar tashkil etishgan. «Kulolning rizqi halol», «Chevarni barcha sevar», «Til bilgan - el biladi» kabilar shular jumlasidandir. 2002-2003 o'quv yili «Xalq Ta'limi tizimida uzluksiz uslubiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish» o'quv yili deb e'lon qilinganligi munosabati bilan, mazkur bog'cha-maktab majmuaga dasturi bolalarning nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha tayanch maktabgacha ta'lim muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. 2003 yil 18 yanvardan maktabgacha ta'lim muassasalarida «Dinshunoslik fanini o'rgatish» yuzasidan «Odob durdonalari» dasturini sinovdan o'tkazish bo'yicha Respublika tajriba sinov maydoni deb tan olindi. Sinov jarayonida ijodkorona mehnat qilayotgan tarbiyachilardan S. Mamajonova, K. Sirojiddinova, X. Xaitova, Yo. Mamadaliyeva va boshqalar mos ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlab, ijobiy natijalarga erishmoqdalar. Tarbiyachilarga bosh-qosh bo'layotgan uslubchi G. Akbarovning mehnatlari ham alohida e'tiborga loyiq.

Darhaqiqat, Maryam xoji aya Batalovanning gaplari quruq gaplar emas ekan. Bog'chani aylanib chiqib, xonalar ko'rgazmali qurollarga boyligini, bolalar qo'llari bilan bunyod etilgan o'yinchoqlar, ko'ylakchalarning bisyorligi meni quvontirdi. Astagina taomnomaga ko'z tashlaganimni sezib, oshxonaga taklif etishdi. Oshxona tartibli, ozoda, eng muhimi oziq-ovqatlar me'yor talablariga javob beradigan. Majmuaga rahbariyatiga qoyil qolib, bir olam taassurotlar oldim.

Salimjon INOMZODA.

«Tong yulduzi» gazetasining maxsus muxbiri Salimjon INOMZODA Andijon viloyatidan xizmat safaridan qaytdi. U barcha tumanlarda bo'lib, u yerdagi ishlar bilan, aniqrog'i, o'quvchi va bog'cha bolalari hayoti bilan yaqindan tanishdi. Kamchiliklari bor maskanlarga otaliq tashkilotlarni biriktirdi. Xususan, muxbir tashabbusi bilan Xo'jaobod tumanidagi 13-bog'chani Xo'jaobod non ishlab chiqarish zavodi homiylikka oldi.


Oliy Majlis deputati, Andijon viloyati Xalq Ta'limi boshqarmasi boshlig'i O'ktam Oxunov ta'biricha, viloyat miqyosidagi har bir sinf «Tong yulduzi»ga obuna bo'ladi va har dushanba birinchi soatdan avval gazeta sharhi o'tkaziladi. «Bizning ushbu gazetaga 25 mingga obuna bo'lishimiz o'quvchilar ma'naviyati va ma'rifatiga qaratayotgan e'tiborimizning isbotidir», - deydi u. Boshqarma boshlig'i muovini Abdumomin Ahmedov esa: «Agar gazetada bir sahifa bolalar bog'chalari uchun uslub masalalariga oid maqolalar ham berilganida edi, biz har bir bog'chani «Tong yulduzi»ga obuna qilardik», - degan taklifni bildirdi.

Andijon viloyati, maktabgacha tarbiya majmuasi 3 ta asosiy vazifalarni belgilab olgan:

1. Nutq va tafakkurni rivojlantirish.
2. Bolalarni jismoniy va ruhiy sog'lig'ini rivojlantirish.

3. Yangi ped-texnologiya TRIZ-IMEN (ixtir, muammo yechish nazariyasi) mashg'ulotlarini joriy etish.

Tarbiyachilar, logoped, defektologlar tarbiyalanuvchilarni «Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturi o'quv qo'llanmasi asosida ta'lim-tarbiya bermoqdalar. Maktabgacha tarbiya majmuasida odatdagidek joriy ta'mirlash ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sport maydonchalaridagi sport inventarlari turli moy bo'yoqlar bilan bezaklangan. Guruh xonalarining barchasi mukammal ta'mirdan chiqarilib, yangi 2003-2004 o'quv yiliga jihozlangan. Yozgi-qishki mavsumga ham joriy tayyorgarlik ko'rilgan. Maktabgacha ta'lim majmuasining barcha deraza oynalari butun, birorta ham siniq oynalar yo'q. Obodonlashtirish va ko'kalam-



zorlashtirish ishlari namunali olib borilgan.

BOBOMDEK USTOZ BO'LSAM

Quva tumani Xalq Ta'limi bo'limiga qarashli 33-umumta'lim maktabning 5-sinf o'quvchisi A'zamjon Otaxo'jayev o'zining



xulqi, odobi va intizomi bilan ajralib turadi. A'zamjon ingliz va rus tili to'garaklariga muntazam qatnashib kelmoqda. Kelajakda bobosi - Quva tumani bo'yicha birinchi bo'lib O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi

Faxr

Maktublar, maktublar, maktublar...

Ismoilxo'ja Otaxo'jayevga o'xshab o'qituvchi bo'lishni orzu qiladi. Bobosining O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tavakkal Qodirov, O'zbekiston xalq yozuvchisi Ibrohim Rahim kabi sobiq shogirdlari hozirda elga taniqli olim. A'zamjon ham bobosining faxri bo'lishga intilmoqda. Uning sinf rahbari Iqbolbek Holiqov A'zamjondek odobli va bilimga chanqoq o'quvchilari borligidan xursand bo'lib, «Kelajagimiz farovon va go'zal bo'ladi. Chunki barkamol, aqlli va zukko farzand yetishmoqda», dedi. Ustoz aytgani kelsin.

Qodirjon JALILOV,
Farg'ona viloyatidagi maxsus muxbirimiz.

SHAMOL

Shamol esadi g'ir-g'ir,
Parishon sochim silar.
Go'yo borliq sirlashib,
Tegramda olam kular.
Lek yuragim uyida,
Ismsiz bir dard yashar.
Tizginsiz xayollarim,
Shu dard bilan kurashar.
Mayin-mayin sochimni,
Sho'x shabboda tarab o't.
Quvonchlaring menga ber,
Vujudimga yoqqin o't.



Maftuna XOLOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om
tumanidagi SamDU akademik litseyi
o'quvchisi.

SIZDAN AVVAL O'QIGAN...

Kuni kecha respublikamizda ustoz va murabbiylar kunini keng tantana qildik. Dunyodagi jamiki yaxshi tilaklarni, niyatlarni o'qituvchilarimiz sha'niga bag'ishladik. Nazarimizda bu ham kamdek. Chunki ularni qanchalik e'zozlasak, ardoqlasak, shunchalik oz.

Lekin oramizda shunday bolalar ham yo'q emaski, ustozlarni ardoqlash u yoqda tursin, ularni masxaralash, ustilaridan kulishdan ham tap tortmaydilar. Keling, yaxshisi yaqinda sinfimizda bo'lib o'tgan bir ko'ngilsiz voqeani so'zlab beray:

- Tasviriy san'at darsi borardi. O'qituvchimiz o'midan turgandi, orqasidan oppoq narsa cho'zilib, unga ergashdi. Avvaliga hech narsaga tushunmadik.

Muhokama uchun mavzu



Keyin esa hamma «xo-xo»lab kulib yubordi. yopishib qolganini

O'qituvchimiz orqasiga qaradi-da, ko'ylagiga saqich ko'rib, jahli chiqib ketdi. «Sizdan avval o'qigan sinf o'quvchilarining ishi bu», dedilar-da, qizarib ketdilar. Biz ham juda xafa bo'lib ketdik. Olimu fozillarimiz, donishmandlarimiz ham ardoqlagan ustozlarga hurmat, e'tibor shu bo'ldimi?

Maftuna QO'CHQOROVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 179 - maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi.

ONAJONIM BOR BO'LSA, DUNYO HAM BOR

Onajonim bor bo'lsa, dunyo ham tinch bo'ladi,
Onajonim bor bo'lsa, hayot totli bo'ladi.
Onajonim bor bo'lsa, yurak mayin uradi,
Ular borki dunyo shodliklarga to'ladi.
Ona misoli daryodir, jo'shib oquvchi,
Ona misoli quyosh, kulib boquvchi.
Oyog'i ostida jannat yotadi,
U borki osoyish tonglar otadi.
Qancha ta'riflasak, shunchalar ozdir,
Ular borki bizga hamisha sozdir.
Onajonlar hamisha sog'- omon bo'ling,
Farzandlar baxtiga yuz yoshga to'ling.



Gulnoza SAIDAZIMOVA,
Toshkentdagi 317 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.

SHAHARDA HAM OMAD YOR BO'LSIN!

Yaqinda Sobir Rahimov tumani Xalq Ta'limi bo'limida tuman yosh qalamkashlarining «Nafosat» tanlovi bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan 315-, 243-, 133-, 249-, 16-, 185-, 29-, 242-maktab o'quvchilarining ona Vatan, onalarimiz, fusunkor tabiatga bag'ishlangan, shuningdek, yomon illatlarni, giyohvandlikni qoralovchi she'rlarini yig'ilganlar diqqat bilan tinglashdi. Ayniqsa, 16 - maktab o'quvchisi Aziza Isoqovaning «Ona», 133-maktab o'quvchilari Afro'za va Pokiza Keldiyorovalarning «Giyohvandlik illat» nomli she'rlarini olqishlar bilan qarshi olishdi.

Uchrashuv so'nggida 315 - maktabning 8 - «V» sinf o'quvchisi Nigora Mirsodiqova, 29 - maktabning 9 - «V» sinf o'quvchisi Nigora Eshimova hamda 249 - maktabning 9 - «B» sinf o'quvchisi Dilrabo Yunusovalar tanlov g'olibi deb topilib, uning shahar bosqichida ham ishtirok etishga yo'llanma oldilar.

Biz esa yosh ijodkor qizlarimizga omadlar tilab qoldik.

Sabohat UMAROVA,
arab tiliga ixtisoslashgan 29 - maktab o'qituvchisi.

Aziz bolajonlar! «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvonlar haqida o'qiganmisiz? Bizning yurtimizda ham «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvonlar mavjud. Qayerda, deysizmi? Hayvonot bog'ida-da!

Bir-biridan go'zal baliqlarni ko'rib, go'yo o'zga olamga tushib qolganday bo'lasiz. Ayniqsa, bir juft akulani ko'rib, hayratingiz yana ham oshadi. Sizga yana bir sirni ochsam, baliqlarni ko'rib, ular bilan suratga tushgiz keladi. Lekin ularni suratga olish ta'qiqlangan. Chunki baliq ko'zlari nozik bo'lib, nurdan ta'sirlanar ekan.

«HAYVONLARNING JAHLINI CHIQARMANG!»

G'arbiy Afrikada tarqalgan Sfinks Mandrili, Afrika va Arabiston yarim orollarida o'sgan Yavan Makaki, Janubiy Afrikada tarqalgan Kapulin plaksa maymunlari turli qiliqlar ko'rsatib, bolajonlar diqqatiga sazovor bo'lmoqda. Bog'da har bir hayvonga o'zgacha e'tibor qaratilgan bo'lib, qafas oynalariga «Hayvonlarni boqmang, jahlini chiqarmang!» deb yozib qo'yilgan. Shunga qaramay, bolalar hayvonlarni non, turli shirinliklar bilan siylab charchamayaptilar.

Rozella, Marjonli to'ti, Karella-nimfa to'tiqushlari daraxtdan-daraxtga qo'nib, o'z go'zalliklarini namoyish qilmoqdalar. Ayniqsa, og'irligi 54 kilogrammli chipor sirtlon, 50 kilogrammli tundra bo'risi, 300 kilogrammli Amur yo'lbarsi o'z salobatlari bilan bog'ni yanada to'ldirib turibdi. Agar yo'lingiz tushib «Hayvonot bog'i» yonidan o'tib qolsangiz, albatta bog'dagi Afrika sheri, tuya, zebra, oq ayiq, qo'ng'ir ayiq, turli qushlar, turna, o'rdak, g'ozlarni ko'rib keting.

Mohira YORMUHAMMEDOVA,
Toshkent tumanidagi 9-maktab o'quvchisi.



Shukur QURBON -
Andijon viloyatining
Baliqchi

qishlog'idan.

«Oqqushlar ko'li»,

«Sog'inch

darvozasi», «Nafas»,

«Ona tilim», «Bir

qalb manzarasi», «Sizni xudo

yetkazdi», «Arba'in» singari o'ndan

ortiq she'riy kitoblari, «Temur Malik»,

«Behzod», «So'z yo'li» kabi tarixiy,

«Do'st», «Vatandan ketish»,

«Hamroh»day qator zamonaviy

dostonlari chop etilgan.

Shoirning 5 nafar farzandi, 3 ta

nabirasi bor. Ular uchun atab

alohida-alohida she'rlar yozadi.

Shukur Qurbon bolalar hayotini

yaxshi biladi.

Qo'llingizdagi kitobcha ham ana shu
tarzda yillab yozilgan. O'yaymizki,
u sizni befarq qoldirmaydi.

SHUKUR QURBON

BAYRAM

BOLALARNIKI

She'rlar



7

YOSH FUTBOLCHI

QO'SHIG'I

Men futbolni va futbol

Meni yaxshi ko'radi.

Uxlasam kechalari

Tushimga to'p kiradi.

Eh, maydon bu yam-yashil,

Zo'r o'yinchi bo'lsang, keli

Yutqizsang ham, yutsang ham,

Ishqibozni qoyil qili



24

XIII

Odat ekan, boqdilar

Senga ham hasad bilan:

Bir burchakda to'planib

Til bilmas uch-to'rt g'alcha,

Farzandlaring boshiga

Musibat soldi gancha.

Kitob ko'targan kimsa

Tahlilali ko'rindi,

Nonday aziz bitiklar

G'ayridin mudasiday

Yerga pinhon ko'mildi.



Ashshuriy, Bobil, Okkad
Taraqqiyoti bir yon,
Bir yon bo'ldi quyoshli
O'lka quchgan sharaf-shon.
Ma'naviyat ufqida
Noming mangu aylandi,
Shumyerlar mixxatiga
Ohanglaring boylandi.

Tosh, deganin kim-kimlar
Tepib o'tmagan befarq,
Lekin sen bois uni
Boshga ko'tardi bashar.
Misli ong dengizida
Zarrin mayj bo'lib qalqding,
Buyuk O'rxun-Enasoy
Yozuvlarida balqding.
Ona tilim, jon tilim.

ONANILIM

(Qasida)

Yuragimning qoshida
Sayrab turgan bulbulim,
Sensiz ochilmas gulim
Ruhiyat bo'stonimda,
Ona tilim, jon tilim.

Qadim ajdod qonida
Seni tanidi dunyo
Va ezgulik tongida
Berding qalbdan aks-sado:
Suvrat bo'lib chekilding
G'orlar ichra avvalo.

NAVRO'Z

Bog'lar-daraxtlarniki,
Tog'lar-lolalarniki,
Kim nima desa-desin:
Bayram - bolalarniki,
Bayram - bolalarniki.

Bog'-bahorsiz qolmasin,
To'kmasin tog' lolasin.
O'zbekiston bag'rida
Navro'zlar omon bo'lsin,
Navro'zlar omon bo'lsin.

Kim - «qizil», kim - «yot unsur»,
Kim - «jadid», kim - «bosmachi»...

Ajrim bo'ldi butun elat

Sarakka va puchakka.

Kim aytar bu g'alvirdan

Oson o'tdi vatanim,

Bois-har so'zing uni

Kelajakka chorladi.

She'riyat osmoningda


Cho'lponlaring porladi.

Ona tilim, jon tilim.



IV

Shakl misli libosdir,
O'zgarar o'tib zamon.
Ayniqsa, bosqinchi yov
Bo'lsa boshda hukmron.
Ayniqsa, u bor yerda
So'ylashsang o'z tilingda.
Bilmay xunob bo'lsa u
Ne bortilgin dilingda.
Broq, mazmun-mohiyat
Hokim erur shaklga.
Arab imlosi b
Egdi turkiy aq



17

QUSHCHA

Qushcha in quradi daraxtga nuqul,
Shamol buzib tashlar uni bechafqat.
Qushcha in quradi daraxtga har yil,
Uning qismatida har yil shu mehnat.
Qushcha chirqillaydi og'ir va dardli,
Ko'ksida olancha orzu va chidam.
Daraxtga u inlar quraveradi
Yovqur shamol esib tursa-da mudom.
Hayotda ko'p bunday g'ussali taqdir,
Odatda ularga taskin berilar.
Unga achinmayman, ammo negadir,
Negadir qushchani qutlagim kelar.



14

KO'Z BOG'LASH


Ko'z bog'lash san'atini,
Mana, o'rganib oldim:
Mana, konfet, mana, uni
Og'zinga soldim.
Chaynadmim: «xo'p». Yutdim: «xo'p»...
Mana, konfet yo'q!..
O'rgataman. Yugur, uyingdan
Konfet olib chiq!



9

XI

«Yasha Turon, yasha, Turon,
Sen yashaydigan zamon!...»
Mazmuni baxt-sodat
Shu bir og'iz kalima
Dolg'alarga to'ldirdi
Yurt hayotin bir yo'la.
Falakka oh aytgan el
O'tib necha asrlar,
Shu jumla- tug' ostida
Kirdi haqiqat yo'lig'a...



22

XIX

Sensiz men so'ladirman,
Devona bo'ladirman,
Tuqqanimga yetti yot
Begona bo'ladirman,
Ona tilim, jon tilim-
Yuragimning qoshida
Sayrab turgan bulbulim.



30

Qadrli bolajonlar!
Siz bilan uchrashib
turganimdan juda
xursandman. Negaki, siz, biz
kattalarni hamisha soddalik
va go'zallikka yetaklaysiz.
Siz bilan suhbatlashar
ekanman, hayotda e'tibor
berish lozim bo'lgan juda
ko'p jihatlar borligini
bilaman. Buni bobolarimiz
his qilishgan, shuning uchun
Sizni «Rayhonlarim» deb
atashgan. Men ham sizning
muattar bo'ylaringizdan bir
guldasta yasab, taqdim
etmoqdaman. She'rларim
sizga o'zgina bo'lsa-da
ma'qul bo'lsa, o'zinni
baxtiyor his qilardim.
MUALLIF

O'RKACHLAR

Belini belbog' bilan
Mahkam bog'laganidan,
O'rkachlar chiqib ketgan
Tuyaning badanidan.



QATLAMA


Tosh tashlasam suv yuziga,
Xalqachalar titraydi.
Qatlama ham o'sshar shunga,
Faqat qimir etmaydi.



9

XIX


Asl shoirlaringni
«Xalq dushmani», dedilar.
Qarg'adilar, so'kdilar,
Bir-bir boshin yedilar.
Shoirmi o'ldirarlar,
O'ldirib bo'lmas so'zni.
Sen tirik qolding yana,
Xalqimning ko'rar ko'zi,
Ona tilim, jon tilim.



25

X

Muqimlikni ko'rding yillab,
Yig'lab yurding furqatda.
Ko'plar seni unuti
Davomli bu kulfatda.
Tumtarov xonliklardan
Turfa jaholat qoldi.
Kim qancha yillar yanglish
Xalqim omi sanaldi.



OQQUSHLAR KO'LI

Shu'lalanib yotar ko'l yuzi asta,
Unda osmon aksi qalqib turibdi.
Bir qancha oqqushlar tashvish bilmasdan
Shu moviy og'ushda suzib yuribdi.
Erkalanib, suvga bosh urib bir-bir,
Ular zavq topgaylar, topgaylar hayot.
Ular shu ko'lga bir umr hokimdir
Va shu ko'l mehriq quldir umrbod.



BULUTLAR

Yuragiga ezgu va go'zal,
Uzun orzu-o'ylar jo etib,
To'da-to'da bulutlar aro
Xarir qanotlarin silkitib,
Bir jajji qush uchib yuribdi.
Ertakday hol. Bulutlar esa,
Uning qanotlari ostidan
Uchgan shamol zarbiga to'zg'ib,
Ketmasak, deb vahima bilan
Jon hovuchlab, cho'chib turibdi.



BIR JAJJI QUSH VA

V

Zehn vodiylarida
Afonaviy bir holat-
Uch og'ayni botirday,
Savlat bilan, shahd bilan
Ot choptirib yuribdi-
«Devonu lug'otit turk»,
«Qutadg'u bilik» hamda
«Hibatul haqoyiq»lar.




VI

Navoiyday farzanding
Dunyoga keldi shu kez.
Seni deb sarg'aydi u,
Qon tupurdi erta-kechi:
«Turk nazmida chu tortib men alam,
Ayladim ul mamlakatni yaqqalam.
«To'rt devon» birla «Panju ganj»
Dast berdi chekmayin andu hu ranj....»


XV

Kechdi ellik yillik umr
Va o'tuz yillik saboq,
Dunyoim sahnasiga
Bo'lib kirding qatim nur.
Ming bir til orasidan
Seni tanidim ayon.
O'z elimni tanidim,
Seni o'rgangan zamon.
Ona tilim, jon tilim.



ILTIMOS

Menga bo'ri va quyon
Rasmini chizib bering.
Bo'rining qo'l-oyog'in
Lekin chizmasdan turing.
Yo'q, to'xtamang uncha ko'p,
Quyoni chizing.
Quyoning oyog'lari
Bo'lsin kuchi va uzun.
Chizmang-bo'rini, yuzi
Yuzi tursa bo'ladi.
Quyon esa, yugursin-
Bo'ridan qutladi.



CHORLASH


Egri-bugri, qing'ir-giyshiq harflar ila
Sen ilk bora yozding, o'g'lim, «Vatan»
so'zini.
Qo'lingdagi qalam ochdi ilk bor ko'zini,
Qog'oz ochdi...
Sen ham, yetar, ko'zlaringni och,
Yuragingga ko'chir uni roslab, avaylab,
Yurakdagi «Vatan» so'zi - umriy ehtiyoj.



XVIII

Men, axir, senkiman,
Sen tuygan zavqnikiman,
Sen kuygan gayg'uniki...
Ona tilim, jon tilim.

Sen mangusan, baqosan,
Men esa, o'tkinchi zot.
Sen - hamisha bahorsan,
Men - lahzaalik xotiro,
Ona tilim, jon tilim.




VII

Parvoz etib nazm aro,
Osmonlarga urding bosh.
Lekin tuproqni qo'nsab,
Pinhona to'karding yosh.
Ta'zimda bo'y-bastinga
Yetmish olam bosh egdi,
Go'zal «Boburnomada
Oyog'ing yerga tegdi.
Ona tilim, jon tilim.

VIII

Nido qildi falakka
Mashrab - isyonkor o'g'il.
Falakni tananganga,
Zaminda qaysi o'ng yo'l?
Yana shoir zarur bo'ldi
Sening so'z minbaringga.
Otashnafas Turdi chiqdi
Yarab ulus koriga:
«Kir haqiqat yo'lga...»



XVII

Tasodif ko'p dunyoda, nasib:
Shoir bo'lsam agarda bir kun,
Hikmating bu sening - ziyoda,
Muruvvating, demak, men uchun.
Bo'lolmasam - o'zimda gunoh,
Sendan gina-kuduratim yo'q.
Demak, seni tushunmabman, oh,
Demak, seni sevmabman ortiq.
Har ikki holatda ham, ..
Senga sodiqman biroq,
Ona tilim, jon tilim.

19

KO'PRIK

Yog'ochdan qurildi ko'priklar bir zamon,
Uzoq sohillarni bog'lagan ko'yi,
Juda ko'p jonni u soppa-sog', omon
Asov bu daryodan o'tkazib qo'ydi.
O'tkazib qo'ydi-yu, vaqtlar o'tib,
Chiridi, tanidan ketdi quvvati
Va bir kun nogahon sindi «qars» etib,
O'zi och to'liqlar aro quladi.



12

LAVHA

Kampir qizin uyg'otmoq bo'lar,
Uyqu bosar ammo o'zini.
Atrof sokin. Moviy bir sahar
Tutib yotar borliq yuzini.
Shirin uyqu ichra yotarkan,
Ko'z ochmoqqa qiyinaladi qiz.
Asta-sekin fursat o'tarkan,
Ko'kdan uchur eng so'ngi yulduz.
So'ngra eshik - derazalardan
Oqargancha kirib borar tong-
Qiz tashrifin tun bo'yi kutgan
Paxtazorlar sog'inchisimon.

11



KICHKINA RASSOM

Odam rasmini chizsam,
O'zim bilib chizaman.
Qog'ozim yetgunicha
Uzun qilib chizaman.
Bilaman: boshi uning
Koptok kabi yumaloq.
Ikki qosh, ikki quloq.
Qolgani juda oson-
To'rtta chiziq chizsam, bas.
Odamning qo'l-l-o-yog'i
Tayyor bo'lar shu nafas.

4



IX

Tarixing bilimog tugal
Mushkul bo'ldi rost desam.
Arab yozuvi turar,
Rus imlosin o'rgansam.
Ruhimga yot belgi-yu,
Harflar ushladi qo'l.
Manzil bitta edi-yu,
Mingta edi unga yo'l.
Ona tilim, jon tilim.

27

20



Unut bo'lgandi biroq
Toshga biik qadim so'z:
Yanglishib parchalangandi
Turk buduni, beklar.
Ko'lankasi maydon xonliklar-
Qo'qon, Xiva, Buxoro
Bir-birining janglar aro
Go'shtin yedi tirklay.

VATAN DOZO

L.B.H.S.O'Q

Olamda tong otadi
Meni qutlab doimo,
Bir qo'shiq yaraladi
Yuragimda dilrabo.
Tun cho'kadi, samoda
Charaqlaydi yulduzlar.
Kuylagan qo'shig'imdan
Qush bo'lib uchar so'zlar:
«Vatan ozod, hur bugun,
Otam ozod, hur bugun,
Onam ozod, hur bugun,
Men ham ozod, hur bugun...»



3

Qadrli bolajonlar, avvalambor, jonajon Vatanimizga bag'ishlangan «Gullayotgan Vatanim» nomli she'r, insho, rasm va boshqotirmalar tanlovida ishtirok etganingiz uchun tashakkur. Shuningdek, sizlarni she'riyat, ijod olamiga yetaklagan ota-onalaringizga, ustozlaringizga ham o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Biz tanlovga yuborilgan har bir maktubni alohida e'tibor bilan fikrlab o'qib chiqdik va respublikamizda iqtidorli, ijodkor bolalarning ko'pligiga yana bir bor amin bo'ldik. Va bundan juda quvondik. Chunki, Vatanimiz kelajagi, ertangi kuni siz - yosh avlodning qo'lingizda. Siz qanchalik bilimli, ilmi, sog'lom va zukko o'g'il-qizlar bo'lib ulg'aysangiz, bizning ko'nglimiz shunchalik taskin topadi. Buning uchun esa juda ko'p o'qishingiz, tinmay izlanishingiz lozim. Shundagina jamiyatda o'z o'rniga, o'z mavqeiga ega insonlar bo'lib, kamol topasiz, gullayotgan Vatanimiz ravnaqiga o'z hissangizni qo'shasiz.

Quyida «BETA TEA» homiyligida o'tkazilgan «Gullayotgan Vatanim» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, g'olib chiqqan o'quvchilarning ro'yxatini keltiramiz va ularni samimiy qutlaymiz.

1. Oynisa ESHMURODOVA, Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi Alisher Navoiy nomli 64-o'rta maktabning 10-sinf o'quvchisi.

2. Muazzam RASULOVA,

«GULLAYOTGAN VATANIM» tanloviga



Toshkent shahri, Shayxontohur tumani.

3. Shohruh SHAYXOV, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 99-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

4. Dilshod TURSUNOV, Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi 12-o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi.

5. Munisa UBAYDULLAYEVA, Yunusobod tumanidagi 97-o'rta maktabning 5-sinf o'quvchisi.

6. Nigora BONU, Toshkentdagi 29-maktab o'quvchisi.

7. Mohinur SIROJIDDINOVA, Parkent tumanidagi 12-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi.

8. Dildora JO'RAYEVA, Samarqand viloyati, Pstdarg'om tumani.

9. Mahbuba SIDDIQOVA, Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi 45-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

10. Sadoqat DADAYEVA, Parkent tumanidagi 5-ixtisoslashgan litsey maktabining 9-sinf o'quvchisi.

11. Durbek SADIROV, Toshkent shahridagi Moliya akademik litseyining 1-kurs talabasi.

12. Munisa KOMILOVA, Toshkent shahar, A.Ikromov tumanidagi 14-maktabning 3-sinf o'quvchisi.

13. Ziyoda MIRZAJONOVA, Shayxontohur tumanidagi 254-maktabning 4-sinf o'quvchisi.

14. Sevara JABBOROVA,

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahridagi Bedil nomli maktab o'quvchisi.

15. Durdona ALIMOVA, Toshkentdagi 196-maktabning 10-sinf o'quvchisi.

16. Durdona AVAZOVA, Shayxontohur tumanidagi 85-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

17. Behzod IKROMOV, Ijtimoiy yo'nalishdagi respublika maxsus gimnaziyaning 5-sinf o'quvchisi.

18. Go'zal ABDUSHUKUROVA, Toshkent shahar, A.Ikromov tumanidagi 116-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

19. Nuriddin HAYDAROV, O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov Akademik litseyining 205 - guruh talabasi.

20. Madina SAIDMURODOVA, Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 5-ixtisoslashgan litsey maktabining 7-sinf o'quvchisi.

21. Dilrabo DO'STQOBILOVA, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 118-maktabning 6-sinf o'quvchisi.

22. Nargiza JALILOVA, Sobir Rahimov tumanidagi 249-maktabning 10-sinf o'quvchisi.

23. Iskandar ODILOV, Hamza tumanidagi 57-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

24. Abdullo HAMIDULLAYEV, Sobir Rahimov tumanidagi 46-maktabning 5-sinf o'quvchisi.

25. Ixtiyor MAHSUDOV, Toshkentdagi 100-nogiron bolalar internati o'quvchisi.

26. Shirinmoh INOMZODA, Toshkent shahar, Bektemir tumanidagi 291-maktabning 4-sinf o'quvchisi.

27. Azamat BAHODIROV, Yunusobod tumanidagi 154-bog'cha tarbiyalanuvchisi.

28. Jahongir RAMZIDDINOV, Yunusobod tumanidagi 143-maktabning 1-sinf o'quvchisi.

29. Shahnoza RAVSHANOVA, Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi 2 - ixtisoslashtirilgan o'rta maktabning 6 - «V» sinf o'quvchisi.

30. Muhayyo ABDULLAYEVA, Toshkent shahri, Farg'ona yo'li ko'chasi, 73-uy.

G'oliblar o'z sovg'alarini shu yil 16 oktyabr, soat 14.00 da «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatidan olishlari mumkin.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30 uy.

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi... Maqsadimiz, bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

Birinchi jahon urushidan so'ng Mishelning bobosi Franchesko Platini o'z turmush o'rtog'i bilan Fransiyaning J e f shaharchasida y a s h a y

MISHEL PLATINI

BO'LAJAK SPORT SHARHLOVCHISI

Tengdoshingiz Oybekjon Niyozov Toshkent shahridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi 243- maktabning 9- «D» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Tirishqoq, yangilikka intiluvchan. Ayniqsa, sportchilarning hayotiga juda qiziqadi. Shu bois mashhur sport yulduzlarining hayoti va faoliyati haqida «Tong yulduzi»ga ko'plab maqolalar yozadi. Tengdoshlarim sportga oshno bo'lsin, bardam-baquvvat bo'ladi dedi-da! Qolaversa, mashhurlar hayoti kattayu kichikka qiziq. Bu kelajakda Oybek haqiqiy sport jurnalisti bo'ladi, deb umid qilamiz. Buning uchun gazetamiz sahifalarini o'z maqolalari bilan to'ldirib, qalamini charxlab borishi kerak. Sport bilan ham muntazam shug'ullanishni kanda qilmasligi shart.

boshladi. Tez orada u kafe-bar ochib, uni «sportchilar kafesi» deb nomladi. Platinilar oilasida o'g'il dunyoga keldi. Unga Aldo deb ism qo'yishdi. Aldoning futbolga qiziqishi katta edi. U mahalliy ishqibozlarning eng suyuqli o'yinchilaridan biri sifatida o'zining chiroyli o'yinlari bilan barchaning

mehrini qozondi. U o'z tezkor hujumlari bilan raqib darvozabonlarini shoshirib qo'yardi. Aldo Platini voyaga yetgach,

kuchli mehri va



U iste'dodi bilan tezda ko'zga tashlandi. «Nansi» komandasi to'p sura boshladi. Mishel ushbu komandadagi birinchi o'yinini «Lion»ga qarshi o'tkazib, raqib darvozasiga ikki to'p yo'lladi. Lekin o'sha yili uning komandasi quyi ligaga tushib ketdi. Mishel keyingi yil 17 ta gol kiritib, jamoaning birinchi dvizionga chiqishiga o'z ulushini qo'shdi. Mishel qit'a kuboklari uchun bo'lgan o'yinlarda raqib darvozalari to'riga 384 ta to'p kiritdi. O'sha davrlarda Fransiya terma jamoasiga Mishel Algado murabbiy edi. Platinini Chexoslovakiya bilan bo'lgan o'rtoqlik uchrashuvida sinab ko'rdi. Platini bu o'yinda o'zini ko'rsatdi va raqib darvozasiga to'p kiritdi. U terma jamoasining birinchi raqamli o'yinchisiga aylandi. 1982 yili Ispaniyada bo'lib o'tgan

iste'dodi bilan tezda ko'zga tashlandi. «Nansi» komandasi



jahon chempionatida Mishel Platini o'zining nimalarga qodir ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun mazkur chempionatdan so'ng Mishel Platinini Italiyaning «Yuventus» klubiga taklif etishdi. Yuventus tarkibida jahon chempionlari hamda Paulo Rossi va Zabichnek kabi hujum qirollari to'p

surar edilar. Mishel bu o'yinchilar orasida yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha, o'zining betakror o'yinchi ekanligini ko'rsatdi va besh mavsum davomida 68 ta to'p muallifiga aylandi. 1984 yili Fransiya bo'lib o'tgan yuvropa chempionati Mishelni butun dunyoga mashhur qildi. U ushbu chempionatda ajoyib o'yinlari bilan muxlislarni hayratga soldi, raqiblar darvozasiga 5 uchrashuvda to'qqizta gol kiritdi. Natijada Fransiya terma jamoasi yuvropa chempioni bo'ldi.

Oybek NIYOZOV, Toshkent shahridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi 243-maktabning 9- «D» sinf o'quvchisi.

Kattalar, muhabbat inson qalbiga faqatgina bir bor mehmon bo'ladigan muqaddas tuyg'u, deyishadi. Shunday ekan, bu tuyg'uni avaylab-asrash, uning qadriga yetish, haqiqiy ishq-muhabbatni shunchaki o'tkinchi bir havas bilan adashtirmaslik kerak, deya nasihat ham qilishadi. Chunki biz hali juda yoshmiz. Bunday his-tuyg'ular bizga begona. Lekin...

Keling, yaxshisi bir boshdan so'zlab bera qolay:

Yaqinda sinfimizga Baxtiyor ismli yangi o'quvchi kelgandi. Gulchehra ismli sinfdoshimiz uni sevib qolishga ham ulguribdi. Dugonalaridan, Baxtiyorga uni sevib qolganimni aytinglar, deya iltimos qilindi. Ertasi kuni ximiya o'qituvchimiz kelmagani sababli sinfda bekor o'tirardik. Qizlar Baxtiyorga bor gapni aytishdi. U

esa javob bermay, sinfdan otilib chiqib ketdi va bir necha kun maktabga kelmadi. Qiz bola bo'la turib, o'z his-tuyg'ularini hammaning oldida oshkor qilgani uchun, bu qilmishi bilan qiz bolalik sha'niga dog' tushirgani uchun Gulchehradan juda xafa bo'ldik. U esa parvoyi-falak. Oradan hech fursat o'tmay, boshqa bir sinfdoshimizni sevib qolganini «e'lon qildi».

Unga qarata: «Ishq boshqa, havas boshqa», degim keladi-yu, lekin nima foydasi bor. Bunday qizlarga pandu nasihat ta'sir qilmaydi-ku, axir.

Munisa AVAZOVA,

Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi

85 - maktabning

7 - «A» sinf o'quvchisi.

ISHQ BOSHQA, HAVAS BOSHQA...

Maktabdagi muhabbat

ZAMONAVIY SEVGI

Qarang-a, shuncha vaqtdan buyon e'tibor bermagan ekanman. Yonginamda men bilan birga o'tiradigan sinfdoshim T. har doim allanimalarni yozish bilan band bo'larkan. Mening esa unga juda havasim kelardi. Juda bilimga chanqoq bola-da, doim dars tayyorlab o'tiradi yoki she'r yozarmikan-a, deb o'ylardim.

Bir kuni uni o'qituvchimiz doskaga chaqirib qoldi. Men esa uning «ijodi» bilan qiziqib, daftarini varaqlab ko'rdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, daftarning boshidan oxirgi satrigacha «love», «Sevgi» kabi naqshinkor so'zlar yozib chiqilgandi...

Oltin teng o'quvchilik davrini bo'lmag'ur mashg'ulotlar bilan o'tkazayotgan sinfdoshimdan ixlosim qaytdi. Men bu bilan muhabbatni qoralamoqchi emasman. Har narsaning o'z vaqti-soati borligini tengdoshlarimga eslatib qo'yimoqchiman, xolos.

Rasul KUSHERBOYEV,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani.



ILOHIY SEVGI

Ilk bor dunyo bo'lgandi paydo, So'ng yaraldi Odami Ato.

Momo havo yaralgandan so'ng, Odam unga bo'lgandi shaydo.

Shundan buyon inson qonida,

Meros erur ilohiy sevgi.

Kimlargadir bu jiddiy tuyg'u,

Kimga esa u o'yin-kulgu.

Hech narsa yo'q ishqdan ziyoda,

Axir ishqdan yaralgan ochun.

Shunday ekan, seving dunyoda,

Vafosizlik kerak ne uchun?!

Baxtiyor YOQUBOV,

O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov

akademik litseyi

202 - guruh o'quvchisi.

MANTIQUIY SAVOL

Bir shoh vazirining aql-farosatini sinab ko'rish maqsadida temirchi ustaning oldiga olib boribdi. Temirchining issiq joyda jon kuydirib ishlayotganini ko'rib, unga: «To'qqizni uchga ursang bo'lmaydimi?», debdi. Temirchi: «Yo'q, mening ota-onamdan, bolalarimdan qarzim bor», debdi. Shoh vazirga uch kun muxlat berib, ana shu suhbatning ma'nosini topishni buyuribdi.

Aziz bolajonlar, sizlar ham bir o'ylab ko'ring-chi, bu suhbatning ma'nosi nima?

Mahmudjon AZIMOV,

Shayxontohur tumanidagi 169 - maktab o'quvchisi.

QANDAY ISHONTIRAY?

Sinfimizdagi bir qiz bilan samimiy do'stlashgandik. Bir partada o'tirib, birga dars tayyorlardik. Bora-bora uni juda yoqtirib qoldim. Aniqrog'i, sevib qoldim. Uni bir kun ko'rmasam, biror narsasini yo'qotib qo'ygan odamdek xafa bo'lib yuraman. Qo'lim ishga, og'zim oshga bormay qoladi. U esa buni umuman payqamaydi, do'stona munosabatda bo'lib yuraveradi...

Bir kuni yurak yutib dilimdagi bor gapni aytdim. U esa, biz shunchaki bir-birimizga ko'nikib qolganmiz. Bu sevgi emas. Haqiqiy sevgi balog'at yoshiga yetganimizda yuragimizga «mehmon» bo'ladi, deydi.

Men unga dadamning, oyimning sinfdoshlari orasida maktab davrida sevishib qolib, keyinchalik mustahkam oila qurganlar borligini aytsam, u ishonmaydi. Qalbimdagi unga nisbatan bo'lgan eng sof his-tuyg'ularimni tan olishni istamaydi. Ayting, men qanday yo'l tutay, sevgimning haqiqiyligiga uni qanday ishontiray?

Alisher IBODOV,

Jizzax viloyati, Zarbdor tumani.

«Tong yulduzi» jamoasi bo'lim mudiri Feruza Odilovaga validai muxtaramasi Nazira ayaning vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.
Hamkasbimizga Ollohdan sabr-bardosh tilaymiz.

BIROVGA KULMA ZINHOR...

Mahallamizda bir nuroniy otaxonu onaxonlar yashashadi. Ularning 3 - sinfda o'qiydigan Shahnoza ismli nabiralari bor edi. Shahnoza ularnikiga tez-tez kelib turardi. Ayniqsa, yozgi ta'til kunlarida umuman uyiga ketmasdi. Buning sababini keyinchalik bildim. Ularga qo'shni turadigan Behzod ismli bir bolani sevib qolgan ekan. «Shu bolani har kuni ko'rmasam, turolmayman», dedi bir kuni menga sirini ochib. Shahnoza o'z sevgisini uch yil sir saqladi. Nihoyat sabru bardoshi tugab, 6-sinfda o'qib yurgan kezlari Behzodga bor gapni aytdi. Behzod esa uning sevgisini rad etdi. Sababi, u boshqa qizni yoqtirar ekan. Shahnozaning tushkunlikka tushib qolganini, hatto o'zini o'ldirishdek bo'lmag'ur xayollarga borib yurganini ko'rib, ustidan rosa kulgandim, «Yosh bo'la turib senga sevishni kim qo'yibdi?», deb. Yaqinda bunday savdo o'zimning ham boshimga tushdi. 7 - «A» sinfda o'qiydigan bir bola meni sevib qolganmish. Dastlab bu gapdan juda achchiqlanib yurdim. Bora-bora u bola menga ham yoqib qoldi. Dardim ichimda, hech kimga aytolmayman. Ishq-muhabbat haqida o'ylashga hali juda yoshlik qilaman, lekin na iloj? Yuragim menga bo'ysinmayapti-da. Goh kulgim, goh yig'lagim keladimi-yey, she'rlar yozgim keladimi-yey... Bu qanday tuyg'u bo'ldi, anglolmayapman. Menga maslahat bering, aziz do'stlarim.

«Birovning ustidan kulmagin zinhor», deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Sizlardan iltimos, mening ism-sharifimni yozmang.

Namangan viloyati, Chust tumani.

TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

Bosh muharrir
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
«O'zbekiston» nashriyoti matbaa bazasida chop etildi.
Adadi - 10976
Korxona manzili: 700129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Buyurtma № 1 - 11
Gazetani Muharrama PIRMATOVA sahifaladi.
Navbatchi: Gulyuz VALIYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./faks: (99871) 144-37-24